

ABUL ABBOS MAROKISHIYNING “UNVONUD DALIL” ASARIDA MUS’HAF IMLOSINI YORITISHDAGI USLUBI

Azizov Mirzabobur Obbos o’g’li

O’zbekiston Xalqaro Islom Akademiyasi

2-kurs magistranti

boburazizov9292@gmail.com

Annotatsiya: *Ushbu maqolada Abul Abbos Marokishiyning «Unvonud dalil» asarida xattotlik – rasmul-mus’haf masalasining ahamiyati va asarda mus’haf imlosini yoritishdagi uslubi o’rganilgan hamda ochib berilgan.*

Kalit so’zlar: *xattotlik, mus’haf, rasmul mus’haf, imlo, yozuv, xat, rasmi Usmoniy, Usmon mus’hafi.*

Ma’lumki, hazrati Usmon roziyallohu anhunung nusxa qildirgan mus’haflaridagi imlo yozuvlarida ba’zi farqlar mavjud. Bunday farqlarning sababi ilk zamonlarda bahs qilinmagan, faqat ikkinchi asrdan keyin rivojlanib ketgan tilshunoslikka oid tadqiqotlarda bu masala dolzarb bo’lgan. Ya’ni, imlodagi o’sha farqlar bir necha jihatdan tahlil qilinish bilan birga ularning mohiyatlarini bayon qilishga urinishlar bo’lgan, ba’zan esa bu masalani butunicha qalamga olib izoh qilishning imkoni bo’lmagan. Mus’haflardagi o’sha yozuv farqlarini ta’lil qilishda (sabab keltirishda) diqqat qilingan qiroat va tilga doir shartlarning butun kalimalarda imkoni bo’lmagan, xossatan butun o’sha kalimalardagi farqlar birgina shart bilan izoh qilinmagan.

Abul Abbos Marokishiy esa bu mavzuni boshqa olimlardan farqli uslubda va mus’haftagi butun kalimalarni qamragan holda umumiy o’laroq tahlil qilgan. U Rasmi-Usmoniy bilan rasmi-qiyosiy orasidagi farqqa urg’u berib, Rasmul Mus’hafning ilohiy ekanini aytgan va unga xilof qilinishlikni joiz deb hisoblamagan. U hazrati Usmon roziyallohu anhunung davrlarida nusxa qilingan mus’haflardagi imlo farqliliklarini na kotibning xatosi deb va na boshqa ehtiyojdan deb hisoblamay, ularni izoh qilgan. Muallif bunday farqli imloning ilohiy ba’zi bir hikmatlarni o’z ichiga olgan bo’lib, ularning bir qancha ma’nolari bor ekanini, xususan bu borada

sahobalarning ushbu imlo ustida ijmo qilganlarini va uni o'shanday tarzda saqlash lozimligini va o'shandagina ulardagi ma'noli hikmatlar ham saqlanib qolishini aytib, o'zining fikrlarini himoya qilgan. U mus'haf imlosidagi farqlarning ma'no o'zgarishlariga sabab bo'lishini aytib, bu mavzuga aloqador bo'lgan butun oyatlarga ma'nolar yuklab masalani ochiqqlagan.¹

Abul Abbas Marokishiy ma'noni o'z ichiga olgan rasmning shakllanish natijasida bo'lmaganini, aksincha rasmda ma'noning yuzaga chiqishi fikrini aytib, uning falsafiy ma'rifatini ham qo'llagan holda mus'haf xatining ontologiyasini qilishga uringan. Uning asarida xat/yozuv bilan eshitish tuyg'ulari orasida mavjud bo'lgan aloqaga diqqat qaratilib, harflar bilan borliq kategoriyalari o'rtasida aloqa o'rnatilgan, mana shu aloqani esa mus'haf imlosi ustida ko'rsatishga harakat qilingan. Abul Abbas Marokishiy avvalo ko'rish tuyg'usining mavzusi bo'lgan lafz va xat bilan eshitish tuyg'usining mavzusi bo'lgan lafz va tinglash orasidagi aloqani bayon qilishga uringan. Shu tariqa u «mabsur» ko'z bilan ko'riladigan xat bilan «masmu'» quloq bilan eshitiladigan lafzning barobar «mahsus» his qilinadigan bo'lganini ifodalagan. Lafzning o'rni esa «savt»dir, ovozdir.² Abul Abbas Marokishiy keyinchalik maxsus shaklda rasm qilingan alif, vov va yo harflarini keng muhokama qilgan. Zero, uning fikricha, harflarning holatlari bilan borliqning holatlari orasida bir aloqa bordir. Xususan, «mabsur» bo'lgan harflarni «masmu'» holiga keltirgan ham harakatlardir (belgilar). Shu sababli harflarning turli kelishi kalimalarning ma'nolarining turlicha bo'lishiga sabab bo'lgandir.³ Boshqacha aytganda, muallif asosan vov, yo va alif harflarining hazf yoki ziyoda qilinishini, ularning bir-birlari bilan o'zgartirilishini, harf va ko'makchilarning alohida yoki birga yozilishini va ta harfining ham ochiq yoki yopiq holda rasm qilinishining ma'noga qanday ta'sir o'tkazishini ifodalashga harakat qilgan.

¹ Abul Abbas Marokishiy, Unvanud-dalil, 14-17-betlar

² Abul Abbas Marokishiy, Unvanud-dalil, 14-17-betlar.

³ Abul Abbas Marokishiy, Unvanud-dalil, 30-31-betlar.

Abul Abbos Marokishiy yuqorida aytilgan tushunchalarini asoslash uchun yangi bir ma'no nazariyasini o'rta qo'ygan. Uning fikricha ma'no, yo fe'lan vujud, yoki idrok va ilmdir. Vujud ikkiga ayriladi, u yo idrok qilingandir yoki idrok qilinmagandir. Idrok qilingani esa yo zohirdir (mulk), yoki botindir (malakut). Idrok qilinmagani ham ikkiga ayriladi, yo mavjudligi e'tibori ila idrok qilinmaydigandir (izzat), yoki idroki mumkin bo'lgandir, faqat uni biz idrok qilolmaymiz (jabarut). Idrok qilingani esa yo zaruriydir, u xabarlar bilan idrok qilinadi, yoki nazar va e'tibor bilan idrok qilinadi.⁴

Muallif bu yerda lafz va harflarni qo'llash orqali ma'no orasida bir aloqa qurish bilan Qur'on oyatlariga zohir-botin, shiddat-xiffat (engillik) shaklidagi ma'nolarni yuklagan va ularni mukammal bir tasavvur bilan idrok qilish mumkinligini aytgan. Uning nazarida rasm bir ramz bo'lib, uning ortidagi ma'no chuqur bir tafakkur bilan zohir bo'ladi va natijada maqsad qilingan ma'no kashf qilinadi.⁵ Ko'rinib turibdiki, Abul Abbos Marokishiy lafz bilan ma'no aloqasini «zohir, botin, mulk, malakut, izzat, jabarut»⁶ ma'nolari mohiyatida bayon qilish tarzidagi bir uslubni qo'llab farqli imlo bilan rasm qilingan kalimalarga botiniy ma'nolarni yuklagan.

Abul Abbos Marokishiy mavjudligi e'tibori ila idrok qilinmaydigan va izzat ma'nosiga muvofiq kelgan qismning, Alloh taoloning ismlarining va fe'llarining ma'no va holatlari ekanini aytgan. Jabarut iborasi bilan ifodalangan qismning esa dunyo, oxirat yoki jannatda bizning idrok qila olmaganimiz martaba va borliqlar ekanini qayd qilgan. Ayni shaklda, muallif «jabarut» kalimasini izoh qilar ekan, ba'zi oyat va hadislar bilan mavzuni qo'llab-quvvatlagan. Masalan, «**Jannatda hech bir ko'zning ko'rmagan, hech bir quloqning eshitmagan va hech bir basharning aqliga kelmagan narsalar bordir**» ma'nosidagi rivoyat bilan «**U (Alloh) sizlarning bilmaydigan narsalarni ham yaratadi**»⁷ ma'nosidagi oyatni bu o'rinda misol tariqasida keltirgan. Muallif mazkur martaba yoki butun olamlarning «**Subhaana zil-**

⁴ Abul Abbos Marokishiy, Unvanud-dalil, 33-34-betlar.

⁵ Abul Abbos Marokishiy, Unvanud-dalil, 16-17-betlar.

⁶ Bu iboralarning ma'nosi haqida qarang, Nihat Azamat, «Malakut», Diyonat ishlari ensiklopediyasi, 29-jild, 47-48-betlar. Irfan Gunduz, «Jabarut», Diyonat ishlari ensiklopediyasi, 7-jild, 193-194-betlar.

⁷ Nahl surasi, 8-oyat.

mulki val-malakuut, Subhaana zil-izzati val-jabaruut» shaklida farishtalarning Allohga tasbeh aytganlari haqidagi rivoyatni o'z ichiga olgan hadisni ham ifodalagan.⁸

Mavzuning yanada yaxshiroq tushunilishi uchun Chalabiyning tilga olgani kabi quyidagi rasmlar orqali masalani ifoda qilishga harakat qilinadi.⁹

Abul Abbas Marokishiyning harflar bilan borliq kategoriyalari orasida qurgan aloqani mus'hafning imlosida qanday qilib ko'rsatishga harakat qilganini bayon qiladigan bo'lsak, masala yanada ravshanlashadi. U avvalo hamza belgisining «*ilklik va asllik*», alif harfining «*fe'liy o'laroq mavjudligi*», vov harfining «*etuklik, yuksalish va ustunlik*», yo harfining esa «*maxfiylik*» ma'nolariga dalolat qilganini aytgan. U ilk sas (ovoz) bo'lgani e'tiboridan ham asllikka dalolat qilgan hamza belgisining mad harflari bilan ko'rsatilgan kalimalarda bu harflarning ifoda qilgan xususiy va botiniy ma'nolarga ishora qilgan. Masalan, «*nash'at*» kalimasidagi¹⁰ alifning dalolat qilgan «*fe'liy jihatdan mavjud bo'lish*» ma'nosiga ishora qilishi maqsadida, hamza belgisining alif sifatida rasm qilinganini qayd qilgan.¹¹

Uzun kasrani bildirgan yo harfining yozuvda ko'rsatilmasligini namuna sifatida ochiqalaydigan bo'lsak, Abul Abbas Marokishiy yo harfining hazf qilingan o'rinlarni «talaffuz qilinishi bilan birga yozuvda ko'rsatilmaganlar» va «ham talaffuz qilinmay ham yozuvda ko'rsatilmaydiganlar» tarzida tasnif qilgan. Birinchisidagi hazfning malakutiy, g'aybiy va botiniy mulohazalarga taalluqli bo'lganini, ikkinchisidagi hazfning esa butunicha his qilinmaydigan bo'lganini va Alloh taologa nisbatan taslimiyatda ehson maqomiga muvofiq kelganini aytgan. Boshqacha aytganda, yo harfining hazf qilingan o'rinlarning malakut va g'aybga, uning sobit qilingan o'rinlarning esa mulk va shahodatga taalluqli bo'lganini ifoda qilgan. Masalan, u «**Fala tas'alni ma laysa laka bihi ilm**»¹² oyatida yo harfining hazf qilinishiga qarshi kelgan ushbu «**Fala tas'alniy an shay'in hatta uhdisa laka minhu shay'aa**»¹³ oyatida esa

⁸ Abul Abbas Marokishiy, Unvanud-dalil, 33-bet.

⁹ Abul Abbas Marokishiy, Unvanud-dalil, 16-bet.

¹⁰ Ankabut surasi, 20-oyat. Najm surasi, 47-oyat. Voqe'a surasi, 62-oyat.

¹¹ Abul Abbas Marokishiy, Unvanud-dalil, 32 va 46-betlar. Mashali, Qur'onning matn tuzilishi, 223 va 278-betlar.

¹² Hud surasi, 46-oyat.

¹³ Kahf surasi, 70-oyat.

hazf qilinmasligi haqida berilgan savolning birinchisiga javob – uning birinchi oyatda g‘aybiy va malakutiy sifatga ega ekani, ikkinchi oyatda esa mulk va shahodat olamida voqe’ bo‘lgan bir hodisaga taalluqli ekani tarzida izohlagan.¹⁴

So‘zning asl xulosasi shuki, Abul Abbos Marokishiy mavjudlik kategoriyalarini harflar bilan aloqaga kiritish tarzi bilan mus’haf imlosidagi farqlarning sabablarini keltirgan. U mus’hafdagi farqliliklarga eng ko‘p mavzu bo‘lgan alif harfining «vujud», vovning «mulk» va yo harfining esa «malakut» ma’nolariga dalolat qilganini aytgan. Ya’ni, mus’haf xatida bir harfning maxfiy qolib yozilmaganligining o‘sha kalima ifodalagan ma’noning ham idrok qilinmaydigan vasfda bo‘lganini, uning rasm qilib yozilganining esa aksiy bir holatga dalolat qilganini, yana bir harfning boshqa bir harfdan badal qilib o‘zgartirilganining ham ma’noga ta’sir ko‘rsatganligini urg‘ulagan. Ayni tarzda muallif, harflarning birga va ayri holda yozilishining sabablarini ham bu rishtalar jihatidan nazarga olinishini aytib, ishora qilingan ma’noning ham chuqur bir tafakkur va tadabbur bilan kashf qilinishi mumkinligini ifoda qilgan.¹⁵

Abul Abbos Marokishiy hazrati Usmon mus’haflarida farqli imlo bilan rasm qilingan kalimalarning ta’liliga boshlamasdan turib, avval bir muqaddima hozirlagan va yuqorida aytilgan xususlarni bu muqaddimada zikr qilgan. Keyin u mus’haf xatining o‘ziga xos bo‘lgan imlo xususiyatlarini klassik asarlarda kuzatiladigan (hamza, ziyoda, hazf, badal, vasl va fasl)¹⁶ kabi boblar bilan qalamga olgan va har bir boblarni o‘zaro kategoriyalarga ajratib tasnif qilgan.

Bu asardagi boblar quyidagi shaklda tasnif qilingan:

- Bobul-hamza.
- Bobul- alif.
- Bobul-vov.
- Bobul-yo.

¹⁴ Abul Abbos Marokishiy, Unvanud-dalil, 93-94-betlar. Mashali, Qur’onning matn tuzilishi, 184-185-betlar.

¹⁵ Abul Abbos Marokishiy, Unvanud-dalil, 34-bet.

¹⁶ Hamza mavzusi mus’haf rasmining eng ko‘p tortishilgan mavzularidan bo‘lib, u hamzaning yozuvdagi xususiyatlarini bayon qiladi. Ziyoda esa imlodagi bo‘lgani holda talaffuz qilinmaydigan mad harflarining yozuv xususiyatlarini bayon qiladi. Mus’haf imlosida yozilmagani holda talaffuz asnosida o‘qiladigan mad harflari esa hazf mavzusida bayon qilinadi. Badal esa harflarning almashtirilishini, vasl bilan fasl esa, birga yoki ayri holda yozilgan harflarni va ko‘makchilarni bildiradi.

- Bobu maddit-taa va qabziha.
- Bobu-vasl val-hajz.
- Bobu hurufin mutaqoribatin.

Bu tasnifdan anglashiladiki, Abul Abbos Marokishiy avvalo hamza, alif, vov va yo harflarining yozuvdagi farqlarini qalamga olgan. Keyin esa, ochiq yoki yopiq o'laroq rasm qilingan ta harfining, birga yoki ayri yozilgan kalima va ko'makchilarning, maxraj jihatidan bir-biriga yaqin bo'lgan harflarning imlo tarzlarini qalamga olib, Rasmul Mus'hafning imlo farqliliklariga mavzu bo'lgan butun oyatlarni ma'rifiy nuqtai nazardan izohlagan.